

OGAHIYNING TARIXNAVISLIK MAHORATI VA "ZUBDATU-T-TAVORIX" ASARI  
O`ZBEK BADIY-TARIXIY NASRINING SARA NAMUNASI SIFATIDA

Atadjanova Saodat Atadjanovna

*Urganch davlat universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shoir tarixchi tarjimon va davlat arbobi bo'lgan Muhammad Rizo Ogahiyning tarixnavislik mahoratini shakllanishi ochib beriladi. Shermuhammad Munis yoza boshlagan "Firdavs ul-iqbol" asarini yakunlash jarayoni, Mirxond qalamiga mansub "Ravzatu-s-safo" asari tarjimasini davom ettirish Ogahiy uchun ijodiy tajriba vazifasini o'taganligi ilmiy dalillangan.

**Tayanch so'zlar:** Ogahiy, tarixnavis, badiiy-tarixiy nasr, saj', nazm, ijodiy, tajriba

Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy o'zbek xalqining va atoqli tarixchisi, o'z davrining mashhur shoiri, mohir tarjimon sifatida o'z asarlari va she'rlari bilan nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyo va jahon ilmiy merosida katta o'rinn tutgan serqirra va sermahsul olim, yetuk mutafakkir edi.

Ogahiy 1809-yilda tug'ilgan, Xiva madrasalarida arab, fors, turk tillarini, mumtoz adabiyot puxta egallagan. Muhammad Rizo juda yoshligidan amakisi - mashhur tarixchi allomasi va mamlakat bosh mirobi Munisning qo'lida tarbiya topgan. Munisning xonardonida o'z davrining yetuk allomalari, shoirlar tez-tez to'planib, suhabatlar qilishar, aynan shu muhitda Muhammad Rizo Xorazmning mashhur shoir va olimlari, adabiyot muxlislarining suhabatlarida ishtirok etgan. Sharq klassiklari asarlari, ayniqsa, Navoiy ijodini qunt bilan o'rgangan.

Ogahiy tarixiy asar yaratish tajribasini dastlab amakisi va ustoz Shermuhammad Munis yoza boshlagan "Firdavsu-l-iqbol"ni davom ettirib, badiiy-tarixiy nasrning mukammal namunasi sifatida yakunlash jarayonida

o'rgangan, deyish mumkin. Munis tarixnavis olim, mohir tarjimon, shoir, xattot va ma'rifatparvar shaxs edi. U arab, fors, turkiy xalqlar adabiyoti bilimdoni, musiqa hamda tarixdan yaxshi xabardor, mohir xattot bo'lib, kufiy, rayhoniy, xatti shikasta kabi xatlarni yaxshi bilgan.

Ogahiy Xorazm tarixnavislik an'analarini davom ettirib, Xiva xonligining keyingi davrlari tarixiga bag'ishlangan bir qator asarlar yaratdi.

Muhammad Rizo Ogahiy XIX asrda hukmronlik qilgan Xiva xonlari davri voqealariga bag'ishlangan besh badiiy-tarixiy asar yozdi. Ollohqulixon hukmfarmoligi davri (1825-1843) to'g'risidagi "Riyozu-d-davla", Rahimqulixon sultanati voqealar (1843-1846) tasvirlangan "Zubdatu-t-tavorix", Muhammadaminxon (1846-1854), Sayyid Abdullohxon (1854) va Qutlug'murodxon (1855) hukmronlik yillardagi murakkab va ziddiyatli hodisalar haqidagi "Jome'u-l-voqeoti sultoniy", Sayyid Muhammadxon zamoniga (1856-1865) doir "Gulshani davlat" hamda Muhammad

Rahimxoni soniy – Feruz davri (1865–1910)ga bag'ishlangan "Shohidu-l-iqbol" asarlari shular jumlasidandir. Garchi tarixiy voqealar tasvirlangan bo'lsa ham, bu asarlar saj' asosida yozilgani, poetik ifoda uslubi, turli janrlarga doir nazm namunalari berilgani jihatidan yuksak badiiy ahamiyatga molikdir. Ular tarixiy jihatdan qanchalik ahamiyatli bo'lsa, badiiyatiga ko'ra ham shunchalik qimmati baland.

"Zubdatu-t-tavorix"-Ogahiy badiiy- tarixiy nasrinig "Firdavs-u-l-iqbol" va "Riyozu-d- davla" dan keying uchinchi kitobi. Asarda Xiva xonlaridan bo'lgan Rahimqulixon davri voqealar betakror badiiy shaklda tasvirlagan. Masalan, uning "Zubdatu-t-tavorix" asarining birinchi qismida Rahimqulixonning tug'ilishi, ilm o'rganish va harbiy mahorat egallash yulidagi sa'y-harakatlari, shuningdek, bo'lg'usi xonning Xazorasp hokimi sifatida olib borgan faoliyati badiiy shaklda mufassal bayon qilinadi. Asarning ikkinchi qismida Rahimqulixonning saltanat taxtiga o'tirgan kunidan to vafotiga qadar sodir bo'lgan voqealar o'z aksini topgan. Unda Xiva hukmdori Rahimqulixon ezgu fazilatlar sohibi sifatida ulug'lanadi, uning ko'plab ilmlarni egallagani, fuqarolarga shavqatli bo'lganligi va Rahimqulixon adabiyot va san'at, ilmu hunar rivojiga alohida e'tibor bergani ta'kidlanadi: "...aksar avqom ulamo va fuzalo va shuar va zurafo bila hamsuhbat bo'lub, ul jamoani bag`oyat aziz va arjumand tutar erdi va xoni ehsoniddin mahzuz va bahramand etar erdi. Va agar shuaroni zamonddin har kim bir qasida va yo bir g`azal va yo bir ruboiy o`z qudratig`a loyiq nazm silkig`a chekib, aning nazari anvari peshgohig`a etkursa erdi, iltifot yuzidin tahsin va ofarin bila bashoshati tamom va masarrati molokalon marosimin zuhurg`a yetkurur erdi. Va aning silasig`a xazonai ehsonidin nuqudi farovon in'om qilib, har nekim komi ersa, berur erdi."

Tabiiyki, so'z ahliga bo'lgan bunday ehtirom XIX asr Xorazm adabiy muhitining yuksalishiga alohida o'rinn tutadi. Qolaversa, Ogahiy asarlari yozilishida ushbu muhitning o'ziga xos ta'siri bor.

Ogahiyning tarixiy asarlari Xiva xonligining iqtisodiy ahvoli, qishloq xo'jaligi, sug'orish tizimi, shaharlari, ilm fan va madaniyat, davlat boshqaruvi va hukmdorlari haqidagi faktlarga hamda geografiya, etnografiyaga oid ma'lumotlarga boyligi bilan ajralib turadi Ogahiy o'zining tarixiy asarlari bilan Xorazmnинг yarim asrdan ortiq davrini yoritib beruvchi qimmatli tarixiy xronikasini yaratdi va O'rta Osiyodagi tarixnavislik fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. U Xiva taxtiga ketma-ket kelib-ketgan sakkiz xon hukmronligi davrida yashadi va faoliyat ko'rsatdi. U xonlarning harbiy yurishlarida qatnashdi, barcha voqealari hodisalarini bevosita o'z ko'zi bilan ko'rib, keyinchalik tarixiy asarlarida haqqonniy aks ettirdi..

"Zubdatu-t-tavorix"da tabiat tasviri bilan jamiyatdagi voqelik o'zaro uyg'un va mutanosib tasvirlanadi. Jumladan, Ogahiy birgina quyosh chiqish holatini asarning turli o'rinalarida turlicha bir-biridan farqli, har bir o'rinda bayon etilayotgan hodisaga muvofiq tarzda ifoda etadi. Masalan, bir joyda quyosh chiqish holatini "...oftobi jahontobning shahsuvori tezraftori mashriq marhalasidan chiqib, falak maydonining qati`g`a javlon ko'rguzdi" tarzida tasvirlasa, boshqa bir o'rinda "quyosh xoqoni mashriq shabistonidan chiqib, falak maydonig`a nur yakronin surdi" shaklida yana bir

holatda esa, "xurshida jahontob jamshidi mashriq ishratxonasidin chiqib, falak saydgohi sori ravona bo`ldi" deya, har bir o'rinda "quyosh" so`ziga hikoya qilinmoqchi bo`lgan voqeaga mos, tamoman yangicha, ohorli ma`no yuklaydi. Binobarin, birinchi tasvirda Rahimqulixonning harbiy yurishga otlangani to`g`risida so`zlanib, quyoshning chiqish holati ham " falak maydonining qat`iga javlon ko`rguzdi" tarzida shunga uyg`unlik kasb etadi. Ikkinci tasvir "quyosh xoqoni mashriq shabistonidin chiqib, falak maydonig`a nur yakronir surdi" shaklida xon lashkaring fasod ahli ustiga yurish qilishi holatiga mutanosib bo`lsa, uchunchi tasvir xonning o`z ayonlari bilan ovga jo`nayotgan holatiga mos.

Shu birgina misoling o`ziyoq ko`rsatib turibdiki, asarda tabiat tasviri bilan voqealar mohiyati ajib bir uyg`unlik kasb etgan va mutonosiblik ifodaning jozibadorligini, ta`sirchanligini oshirgan.

"Zubdatu-t-tavorix" asarining bizgacha yetib kelgan besh qo`lyozma nusxasi mavjud bo`lib, ulardan biri Rossiya Fanlar akademiyasi Sank-Peterburg Sharq qo`lyozmalari institutida, yana biri Sank-Peterburgdagi Rossiya Milliy kutubxonasida, qolgan uchtasi esa O`zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Asar muqaddimasida ta`kidlanishicha, "Zubdatu-t-tavorix"ning yaratilish tarixi quyidagicha bo`lgan: Muhamad Rizo Ogahiy Ollahqulixon hukmfarmoligi davriga bag`ishlangan "Riyuzu-d-davla" memuar-qissasini yakunlagach, bu paytda Xorazm humkdori bo`lgan Rahimqulixonning "majlisi ishratparvar va suhbati kimyoasariga eltib, tuhfa chekadi". Muarrix keyingi voqealar to`g`risida bunday yozadi: "...ul hazrat (Rahimqulixon) xaddin afzun istehzon ko`rguzub, anvo`i lutfu ehson bila ashboh va ajnosim arosida quyosh yanglig` sarafroz va mumtozlig` yetkurdy. Va yana haddan afzun iltifot ko`rguzib, guharbor tilin mundoq javharfishonliqg`a evurdikim, jahoni bebunyodning ayvoni xarobobodida iqomat masnadin solmoq, xususan, saltanat amri xatirin zimmai himmatga olmoqdin g`araz uldurkim, kishidin zikri jamil yodgor qolsa. Bu muddao imorat va baqe`ot bino qilmoq bila dast bermas va avlod tanosuli va tavoludiga ham shomil ermas. Magar so`z avroqida boqiy qolg`aykim, anga hodisotu jahon to`fonxezligi va tasrifoti zamon fitnaangizligidin osibe va tafriqa etushmas.

Nazm:

Kishi necha imorat qilsa bunyod  
Va yoki haddin avzun qo`ysa avlod,  
Tutub bo`lmas birisidin baqo ko`z,  
Qolur boqiy jahon ichra magar so`z.

Bas, emdi sanga lozim va tahatgumdurkim bizning ismi humoyun va alqobi maymun va vaqoe`i qasru-l-badoe`mizga mushtamil bir kitobi balog`at intisob murattab qilaylik. Tokim, zikri jamil va vasfi jalilimiz zamon avroqida boqiy qolg`ay va jahon ahlin hayrat bag`rig`a solg`ay. Chun bu iltifoti qasru-l-barokat quyoshi ahvoli saodatmaolimg`a partava vafqat bo`ldi.

Ko`nglimga o`zga yanglig` quvvat va tab`imga haddin afzun safvat hosil bo`lib, “Alma`muru ma`zur “ fatvosi bila mundoq amri azimdin ibo va imtino` ko`rguza olmadim. Lojaram, farmoni lozimu-l -imtosol ijrosig`a dalir ishtig`ol ko`rguzdim”.

Ogahiyning ushbu memuar-qissasi asosan sajli nasrda bitilgan bo`lsa ham, unda qasida , masnaviy, g`azal, ruboiy, qit`a, ta`rix va fard singari mumtoz she`riy janrlar namunalari ham ko`plab uchraydi.

Ogahiyning tarixiy mavzudagi barcha nasriy asarlari, jumladan, “Zubdatu-t-tavorix”ham birinchi navbatda badiiy, undan keyin tarixiy asar hisoblanadi. Ogahiy tarixiy voqealar va vaziyatlarni o`ziga xos ifoda uslubi va badiiy sayqallagani uchun biz “Zubdatu-t-tavorix”ni badiiy-tarixiy asar sifatida baholashimiz mumkin. Asarda Xiva va Buxoro xonliklari o`rtasidagi o`zaro nizolar qonli urushlar, ularning oqibatlari haqidagi haqqoniylar ta`sirchan ifodalangan. Aksariyat fikrlar Qur`oni Karim oyatlari va payg`ambar alayhissalom hadislari bilan dalillangan. Iymonsizlik, fossiqlik, e`tiqodsizlikning oqibati xorlik ekani tarixiy voqelikning badiiy talqini orqali aks ettirilgan.

Ogahiy ijodi nafaqat zamondoshlari, balki o`zidan keyingi tarixchilar avlodи uchun ham manba sifatida katta ahamiyatga ega bo`lgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик:: (XVI–XIX ва XX аср бошлари). – Т., Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002.
2. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. -Т., 2010. 467-6.
3. Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийларнинг тарихий асарлари. – Т.: Фан, 1960.
4. Мухаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Зубдату-т-таворих / Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Н.Жабборов. -Т., 2019.